



Distinctive psychological aspects of perception in foreign language learning

Pakiza ISAMOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

perception,
foreign language,
communication,
student,
thinking,
memory.

ABSTRACT

This article provides a detailed analysis of perception as a psychological phenomenon in the process of learning foreign languages, along with the personal characteristics, attention, and thinking of students acquiring a foreign language. It highlights the psychological features of learning and teaching foreign languages, such as the perception of texts in a foreign language and the memorization of vocabulary. The paper also reveals the psychological aspects of expanding and developing students' thinking in a foreign language during the process of acquiring other languages.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp58-61>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xorijiy tillarni o'rganishda idrokning o'ziga xos psixologik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

idrok,
xorijiy til,
muloqot,
talaba,
tafakkur,
xotira

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishda idrokning o'ziga xos psixologik xususiyatlari, xorijiy til o'zlashtirgan talabaning shaxsiy xususiyatlari, diqqati va tafakkuri batafsil bayon qilingan. Xorijiy til o'rganishning, o'rgatishning psixologik o'ziga xosligi chet tildagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan talabalar o'zga tillarni o'zlashtirish jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini ochib berilgan.

¹ Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: 00isamova@gmail.com

Специфические психологические особенности восприятия при изучении иностранных языков

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

восприятие,
иностраный язык,
общение,
студент,
мышление,
память.

В данной статье подробно раскрываются особенности восприятия как психологического феномена при изучении иностранных языков, а также личностные характеристики, внимание и мышление студентов, овладевающих иностранным языком. Освещаются психологические особенности обучения и преподавания иностранных языков, такие как восприятие текста на иностранном языке, запоминание слов, а также раскрываются психологические аспекты расширения и развития мышления студентов на иностранном языке в процессе овладения другими языками.

Bugungi zamonaviy fan texnika rivojlanib borayotgan XXI asrni chet tillarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni shiddat bilan tez suratlarda o'sib borayotgani sari chet tilini o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bugun har qanday kasbda malakali kadr mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi.

Hozirgi kunda biz til o'rganishni nafaqat maktab, kollej, litsey va oliy yurtlar miqyosida, balki bog'cha tarbiyalanuvchilari orasida ham ko'rishimiz mumkin. Yurtimiz taraqqiy etayotgan bir bosqichda, jamiyatimizning eng yosh qatlami ham chet tillarini o'rganishga bel bog'ladi. Ma'lumki, ko'plab rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm fani taraqqiyoti yutuqlarini o'rganishga va egallashga vosita vazifasini o'taydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jarayonida professor-o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablarda ular ham xorijiy tillarni bilishi talabi qo'yilgan. Shu boisdan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda katta yoshdagi professor-o'qituvchilarga xorijiy tillarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Xorijiy til o'rganishning va uni o'rgatishning psixologik o'ziga xosligi chet tildagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan talabalar o'zga tillarni o'zlashtirish jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini bilishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'zlashtirish jarayoni talaba yoshlarning psixologik xususiyatlari, aqliy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlaridan xabardor bo'lishi, talabaning psixologik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish ular bilan bo'ladigan munosabatlar uchun zarur psixologik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Biror bir xorijiy tilni tez o'rganish, unda tezda gapira olish siri nimada? Nima uchun to'rt yil davomida bosh ko'tarmasdan bitta chet tilini o'rganayotgan talabalarning aksar qismi o'sha tilning o'zida to'rt besh og'iz gapni bexato ayta olmayotganda bu tilga aloqasi bo'lmagan boshqa yo'nalish bo'yicha o'qiyotgan talabalar haftasiga uch to'rt soat vaqt ajratib tilni ajoyib tarzda o'zlashtiryapti? Bu kabi savollarga psixologik yondashuv asosida nazar tashlaydigan bo'lsak har bitta til o'rganadigan talaba yoki o'quvchi o'zining psixologiyasiga ega bo'ladi. Bu degani xorijiy tillarni o'rganayotgan insonda faqat bitta tilda gapiradiganlarga nisbatan, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay olish qobiliyati bo'ladi.

Ushbu qobiliyat turli chalg'ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi. Shuning bilan birga ularda matematik qobiliyat ham yaxshi rivojlanib boradi. 2007-yilda chet tillarni o'qitish bo'yicha Amerika kengashi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko'proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o'qimaydigan o'quvchilarga nisbatan, matematika bo'yicha yaxshiroq natijalarni ko'rsatgani aniqlandi. Hayratlanarli tomoni yo'q – boshqa til asoslarini o'rganish mantiqiy fikrlashni ishga tushiradi. Chet tillarini o'rganishning yana bir yaxshi tomoni shundan iboratki, unda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o'qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko'p til biladiganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki xorijiy tilni o'rganayotgan talabalarning psixologik faoliyati ham o'sha tilni o'rganishdan iborat bo'lmog'i lozim. Ya'ni ularning mehnat va o'qish faoliyatlari nazarda tutilganda aqliy jihatdan o'rganilgan bilim bu o'qish faoliyatiga aloqador bo'lsa o'rganilgan bilimni mehnat faoliyati orqali o'zlashtirish zarur. Aytaylik, talaba ingliz tilida hozirgi zamon mavzusini o'qish faoliyati orqali amalga oshirdi. Endi uni ta'lim muassasasidan tashqariga chiqqandan so'ng mehnat faoliyati orqali amalga oshirib ya'ni o'z tengdoshlari bilan ayni paytda amalga oshayotgan ish harakatlarni ingliz tilida so'zlashish hamda muloqot qilish orqali o'zlashtirsa olingan bilib mustahkamlanib boradi. Shuning bilan bir qatorda, idrok qilish ham til o'rganishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak o'rganilayotgan bilim faqatgina oddiy aks ettirilmasdan balki bu jarayonda odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, hayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi. Chunonchi, odam diqqatini qaratmasdan (yo'naltirmasdan) birorta narsani ham, jumladan, qabul qilinayotgan bilimni ham mutlaqo idrok eta olmaydi.

Diqqat qaratilgandagina chetdan ta'sir qilayotgan yoki qabul qilinayotgan axborotni ravshan idrok etamiz. Til bilimlarini idrok qilish jarayonida o'quvchining ilgari orttirgan bilim tajribasi ishtirok etdi, binobarin, idrok jarayoni xotira bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Til o'rganayotganda hamisha qaysidir ma'noda tanish jarayon idrok qilinadi. Tanish jarayon qatnashayotgani tufayli o'rganuvchi idrok qilayotgan narsalarini darrov anglab yetadi. Demak o'quvchi hozirgi idrok qilayotgan bilimlari ilgarigi idroklarida qay darajada mavjud bo'lgan va saqlanib qolgan bo'lsa, bu narsa ongda taqqoslab ko'riladi va agarda mos kelsa, ayni chog'da idrok qilinayotgan axborotni taniydi. Aytaylik, talaba o'z ona tilida yetarlicha bilimga ega. Endi u ma'lum bir xorijiy tilni, masalan, ingliz tilini o'rganmoqda va bunda unga oldingi o'zlashtirilgan bilim yordamga keladi va o'zbek tili bilan ingliz tilini haqli ravishda solishtirib ko'radi. Bu ham idrok qilishning bir jarayoni hisoblanib, bunda o'zbek tilidagi axborot bilan ingliz tilidagi axborot bir biriga mos kelsa ong bu narsani darrov taniydi va o'quvchida ushbu ma'lumotni o'rganishda qiyinchilik tug'ilmaydi. Aksincha, agar oldingi bilim hozirgi idrok qilinayotgan bilimga mos kelmasa ham idrok qilish jarayoni davom etaveradi. Aynan mana shu jarayonda endi nutq va tafakkurning qatnashishi namoyon bo'ladi. Chunki bizning nutq va tafakkurimiz mos kelmagan axborot uchun chigal xulosa chiqarib beraveradi. Ya'ni yangi ma'lumot haqida nutq va tafakkur aniq hukm va xulosa chiqarmaguncha idrok jarayoni xayolimiz bilan bog'lanib ketadi. Endi idrokning faoliyati yanada kuchayadi. Bunga misol qilib aytish mumkinki, talaba o'zbek tili grammatikasida "kelishik" haqida bilimga ega, ammo ingliz tilida bu narsa tarqoq tarzda o'rganiladi. Ingliz tilida kelishik mavjud ammo xuddi o'zbek tilidagidek 6 ta emas 2 xil bo'ladi va o'z ichiga faqat bosh kelishik va qaratqich kelishigini oladi. O'zbek tilidagi qolgan kelishiklarni esa

ingliz tilidagi “predlog” turkumi orqali ekvivalent ya’ni ma’nosi teng keluvchi tarzida o’rganamiz. Demak idrokimiz ingliz tilida kelishiklarni o’rganayotgan paytida oldingi bilimlariga mos keluvchi axborotni topa olmagach, tafakkurimiz chigal hukm chiqaradi va xayol yordamida bu narsa to’ldirilib mos obrazga keltiriladi va mazmuni kengaytiriladi.

Xorijiy tillarni o’rganishda, albatta, diqqatning ham ahamiyati katta. Chet tilini o’rganishda diqqat talabning aqliy va harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning xorijiy tilni, masalan, ingliz tilini o’rganishga qaratilganligi va yo’naltirilganligidadir. Ingliz tilini o’rganayotganda talabada ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyordan keyingi diqqat jarayonlarini amalga oshadi. Ixtiyoriy diqqat jarayonida talaba oldindan o’z oldiga qat’iy maqsad qo’yib so’ngra ongli ravishda diqqatimizni faqatgina o’sha tilni o’rganishga qaratadi. Aynan shuning uchun ham o’qish faoliyatida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. O’z navbatida ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi va farqli ravishda ixtiyoriy diqqatga nisbatan ortiqcha iroda va kuch talab etmaydi. Shu jihatdan olganda ta’lim jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o’tib turishi yaxshi bo’ladi. Ana endi ingliz tilini ixtiyoriy ravishda diqqat qilib o’rganayotgan talaba o’zi bilmagan holda qiziqib o’qishni boshlaydi va g’uni hech narsa tilni o’rganishga majbur qilishi ham shart bo’lmay qoladi. Demak, tilni o’rganishda diqqatning bu 3 xil ko’rinishi bilan bir qatorda uning ko’lami ham muhim. Ya’ni tilni o’rganish idrok qilinayotgan jarayonda diqqatimiz qaratilgan narsalardan qanchasini ongimizga sig’dira olishimiz diqqatning ko’lamini tashkil etadi.

Xorijiy tillarni o’rganish xususida gapirilganda xotiraning ham tutgan o’rniga ahamiyat qaratish lozim. Xotira biz idrok qilgan bilimlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Til o’rganish jarayonida har kuni yangi bilimlarni qabul qilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Bilamizki, ingliz tilini quyidagi bosqichlarda o’rganib boramiz:

- A) eshitish;
- B) yozish;
- C) o’qish;
- D) gapirish.

Mana shu yo’llar orqali xotirada o’zlashtirilgan bilimni saqlab qolish mumkin. Bu jarayonlar bir biri bilan uzviy ravishda bog’liq bo’lib har qanday xorijiy tilni o’rganishda o’rganuvchida yuzaga keladigan faoliyat hisoblanadi. Demak, xorijiy tillarni o’rganishda yuqoridagi psixologik jarayonlar har bir o’rganuvchi talaba va o’quvchilar faoliyatida muhim rol o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. А. Маслоу. Мотивация и личность. Изд. пер. с англ. – Спб.: Питер, 2008.
2. Аверьянов А.И., Рассказова А.Л. Методические рекомендации для студентов МГПИ. Протокол №9 от 12апреля 2010г.- С.4-7.
3. Милиева Муаттар Гаффаровна О психоллингвистике и нейролингвистике билингвизма // Вопросы науки и образования. 2018. №8 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-psiholingvistike-i-neyrolingvistike-bilingvizma> (дата обращения: 21.05.2024)
4. Miliyeva Muattar Gaffarovna. (2023). Influence of Bilingualism on Socio-Cognitive Personal Development. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 19, 61–64. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/3765>